

16-DEKABR

2022



Toshkent tibbiyot akademiyasi



O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi

Abu Rayhon Beruniy ilmiy- madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google
scholar



Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi

www.ssv.uz

Mazkur to‘plamda Toshkent tibbiyot akademiyasining “Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifatiga muallif(lar) javobgar hisoblanadi.

Toshkent - 2022



Tahrir hay'ati

Shadmanov Alisher Kayumovich	<i>Rektor, Tashkiliy qo'mita raisi</i>
Bobomuratov Turdiqul Akramovich	<i>Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor</i>
Azizova Feruza Lyutpillaeva	<i>Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor</i>
Norqulov Suxrob Dosmurodovich	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri</i>
Xudoyqulova Gulnora Karimovna	<i>Jamoat salomatligi kafedrası mudiri</i>
Alimova Saboxat Gazievna	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti</i>
Umarova Farida Saidikramovna	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi</i>
Muyassarova Muxabbat Muxamaddievna	<i>Jamoat salomatligi kafedrası katta o'qituvchisi</i>
Abilov Ural Murodovich	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrası professori</i>
Norkulov Do'smurod Toshpo'latovich	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrası professori</i>
Iskandarov Sherzod Abdug'aniyevich	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti</i>
Nurbayeva Xabiba Botirovna	<i>Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi xodimi</i>

Moderatorlar

Alimova Saboxat Gazievna	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti</i>
Nurbayeva Xabiba Botirovna	<i>Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi xodimi</i>

BERUNING AXLOQIY QARASHLARI

Feruza Sadullaevna Atamuratova

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti
falsafa fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Sharq Renessansining buyuk olimlaridan biri Abu Rayxon Beruniyning axloqiy qarashlariga bag'ishlangan bo'lib, unda inson ma'naviy kamoloti va yuksak insoniy fazilatlarini - yaxshilik, mardlik, do'stlik, halollik, haqqo'ylik, muruvvat, adolat, rahmdillik, qat'iyat, sabr-toqat, kamtarlik haqidagi fikrlariga ahamiyat berilgan.

Kalit so'zlar: Renessans, mutaffakar, axloq, etika, fan, inson, ma'naviyat, qiyofa, millat, yuksak.

Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048 yy.) Sharq Renessansi davrining qomusiy olimlaridan biri hisoblanadi. U 150 dan ziyod fundamental asarlar yozgan bo'lib, ilmiy asarlari inson sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan buyuk xizmatlarining eng yorqin dalilidir. Beruniy o'zining butun umri davomida turli fanlarga qiziqib, yozgan asarlarida falsafa, sotsiologiya, tarix, filologiya, etika va boshqa fanlarga oid masalalar yuzasidan o'ziga xos fikrlarini bergan. Ayniqsa, Beruniyning axloqqa oid qarashlari bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi.

Beruniy yer yuzidagi boshqa mavjudotlarga qaraganda inson zimmasiga eng mas'uliyatli vazifalar yuklangan, deydi. Uning fikricha, inson - tabiatning eng oliy kamoloti bo'lib, "inson zotiga yer yuzini obod etish va uni boshqarib turish uchun katta sharaf ko'rsatilgan - unga aql-zakovat kuchi armug'on etilgan" [1, 9]. Shu sababli, insonning ma'naviy qiyofasi uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lmog'i uchun u yuksak axloqli, bilim-ma'rifatli bo'lishi lozim.

Mutafakkir inson xatti-harakatining axlokiy sabablari va motivlari asoslarini insonning o'zidan qidirgan, o'zidan oldin o'tgan olimlar kabi shaxsning tabiatidan keltirib chiqargan. "Odam, - deydi Beruniy, - tabiati jihatidan bir-biriga zid a'zolar qo'shilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega..." va shu boisdan "uning holati o'z xarakteriga ko'ra xilma-xil va turli-tuman bo'ladi" [1,11]. Beruniyning da'vosicha, hamma odamlar o'z qiyofasi jihatidan bir-biriga o'xshaydi, ammo ayni choqda ular bir-biridan farq qilib



turadi. Bu tafovut “ular temperamentlarining, tabiiy xususiyatlari va hokazolarning ziddiyatli bo‘lishi tufayli ularning instinktlari zamirida yotadi” [1,26].

Olim uqtiradiki, shaxsning ma’naviy qiyofasi u boshqa odamlar bilan muloqatda bo‘ladigan jamiyatda shakllanadi. Mutafakkirning ilgari surgan kollektiv tarzda hayot kechirish zarurligi haqidagi g‘oyalari faqat sotsial mazmunga emas, balki axloqiy mazmunga ham ega. U jamiyatning tashkil topishi asl sabablarini eng olijanob motivlari: o‘zaro yordam, bir-biriga foyda keltirish, ehtiyojlarni birgalikda qondirish zarurati va hokazolar deb biladi. Beruniyning fikriga ko‘ra, bu sahovatli xislatlar har bir kishining ajralmas axloqiy prinsipi bo‘lib qolishi zarur. Odam hamma vaqt boshqalarning baxt-saodati haqida, muayyan vazifalarni bajarish zarurligi haqida o‘ylashi lozim, chunki “bu kishining dunedagi butun faoliyati davomidagi yashashi (prinsipi) dir” [2,83].

Beruniy muruvvatni insonning chinakam axloqiy xislatlaridan biri deb hisoblar edi. Mutafakkirning fikriga ko‘ra, muruvvatli kishi odamlarga xayrixoh bo‘ladi, u halol va haqgo‘y, boyluk orttirishga intilmaydi, o‘z mehnati bilan, dehqonchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik va hokazo bilan shug‘ullanadimi, bari-bir, o‘z mehnati bilan yashaydi. “Muruvvatli erkak (mard), - deb yozgan edi Beruniy, - o‘zidan va o‘z mol-mulkidan boshqa (hech narsaga) ega bo‘lmaydi, mol-mulkning kimniki ekanligiga (hech kim) shubha qilmaydi” [1,14]. Beruniy “mulozamat, rahmdillik, qat’iyat, sabr-toqat va kamtarlik”ni [1,9] yuksak axloqiy insonning asosiy xislatlari deb bilar edi. Ya’ni, mutaffakir muruvvatlilik deganda eng avvalo insonning axloqiy kamolotini tushunar edi.

Beruniy irqiy, diniy va territorial to‘siqlarga qaramay, odamlar o‘rtasida, xalqlar o‘rtasida do‘stlik uchun chinakam kurashchi sifatida maydonga chiqadi. U xuddi xalqlarning ana shu do‘stligini ijtimoiy taraqqiyotning kuchi, insoniyat baxt-saodatining poydevori deb bilar edi. Beruniy “odamga eng yaqin turgan narsa uning o‘z jonidir. Ana shu jon uchun birinchi galda yaxshilik qidirish, undan keyin esa uning tevaragida eng yaqin turgan narsalar uchun yaxshilik qidirish juda ham munosib ishdir”, deydi [1,21]. Buyuk insonparvar mutafakkir, chinakam do‘stliksiz haqiqiy baxt bo‘lmaydi, deb ta’lim berar edi: “uning (insonning) baxti munosib tarzda hayot kechiruvchi, maqtovga loyiq fe’l-atvorli haqiqiy do‘stidadir” [1,21]. Uning fikriga ko‘ra, kimki axloqan yaxshi tarbiyalangan, ma’naviy boy bo‘lsa, axloqiy qonun-qoidalarga muvofiq turmush kechirsa, do‘st degan nomga munosib.

Olim o‘zining "Hindiston" asarida hind xalqining tarixi, turmush tarzi, hayoti, axloq-odobi an‘analarini ob‘ektiv tarzda tavsiflar ekan, unga g‘oyat katta hurmat bilan qaraydi. Shu bilan



birga, u hindlarning ayrim qismlari xayolidagi millatchilik elementlarini, boshqa xalqlarga yomon ko'z bilan qarash tuyg'ularini qattiq qoralaydiki, bunday kishilar nazarida "yerlar - ularning yerlari, kishilar - faqat ularning xalqi namoyandalari, podsholar - faqat ularning hokimlari, din - faqat ularning dini, faqat ularda borgina fandır... Ular yer yuzida o'z mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarning, o'z xalqlaridan boshqa kishilarning borligini hatto xayolga ham keltirmaydilar" [4,67-68]. Hindlar muayyan qismining boshqa xalqlarni kamsitishlarini qoralab, Beruniy xalqlar o'rtasida nifoq va nizolar bo'lmasligi kerak, bularni xalqlarning o'zlari bartaraf etishlari va tamomila yuq qilib yuborishlari mumkin, degan o'z zamonasi uchun juda muhim bo'lgan fikrni aytgan edi.

Beruniyning axloqiy qarashlari haqida gapirganda olimlar axloqi haqidagi uning tasavvuriga to'xtalib o'tish lozim. Olimlar yaratadigan ilmiy asarlar, mutafakkirning fikricha, faqat nazariy-amaliy ahamiyatgagina emas, ("istiqbolga nigoh tashlab, falokatlardan iloji bo'lganining oldini olish" [2,84]) balki ma'naviy ahamiyatga ham egadir ("ular yuksak axloq-odob kasb etadilar va xizmatlari samaralarini to'playdilar" [2,81]). "Bordiyu fan bo'lmaganida edi, idrok etilayotgan narsa yovuzlik, kechilayotgan narsa esa yaxshilik bo'lib chiqishiga ishonch bo'lmagan bo'lur edi" [2,81]). Ana shuning uchun ham faylasuf olimlarni jamiyatdagi ulkan vazifalarga munosib bo'lishga, nosamimiylik va g'arazgo'ylikka yo'l qo'ymaslikka da'vat etadi, chunki bu nuqsonlar "fanni inkor etishga va fan ixlosmandlariga nafrat bilan qarashga" [4,58]) olib kelishi mumkin.

Beruniyning ta'lim berishicha, mard odam bo'lish - faqat so'zdragina emas, balki amalda ham haqqoniy bo'lish demakdir. Mard kishi haqiqat uchun kurashib, hech kanday ta'qib va xavf-xatarga qaramay, yolg'onga qarshi kurashishi lozim: "Yolg'ondan qochib, haqiqatga amal qiladigan kishigina taxsin va maqtovga sazovordir... Axir, "haqiqat hatto sizning o'zingizga qarshi bo'lsa ham, haqiqatni ayting" deyilgan-ku" [4,81].

Zamondoshlari xabar berishlaricha, Beruniy g'oyat kamtarin, mustahkam, irodali, mehnat kilib charchamaydigan, bilimga qattiq berilgan kishi bo'lgan. Beruniy o'zining mashhur "O'tgan ajdodlardan qolgan yodgorliklar" asarining oxirida uning kamtarligi va yuksak nafsoniyatdan dalolat beruvchi quyidagi so'zlarni yozgan edi: "Kitobxon albatta (yo) menga o'xshagan bo'ladi va o'shanda u meni maqtaydi va mening kuch-g'ayratim uchun minnatdorchilik bildiradi, yoki (uning bilimlari) darajasi mening darajamdan yuqori bo'ladi, unda u muruvvat qilib, nuqsonlarni to'g'rilaydi va xatolar qilingan bo'lsa, buning uchun kechiradi. Kitobxonlarning uchinchisi (xili)ga kelganda, bu



xususda men (tahlikadan) xoliman, chunki ular (yo) bilimlar olmoq uchun menga bo'ysunadilar, yoki o'zlari zaif bo'lgan (sohada) menga nisbatan dushmanlik qiladilar" [5,413].

Beruniyning axloqiy qarashlarini o'rganish shuni ko'rsatib turibdiki, uning yaxshilik, yomonlik, nomus, baxt, mardlik, do'stlik, halollik, haqgo'ylik, adolatlik kabi ko'p axloqiy masalalarga ahamiyat bergan bo'lib, ular bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

REFERENCES

1. Абу Райхон Беруний. Минерология (перевод А.М.Беленицкого)// Избранные произведения, Том II. – Ташкент: Фан, 1966.
2. Абу Райхон Беруний. Геодезия (перевод П.Г.Булгакова), Ташкент, 1966.
3. Абу Райхон Беруний. Индия (перевод А. Б. Халидова, Ю. Н. Завадовского)// Избранные произведения, Том II. – Ташкент: Фан, 1963.
4. Абу Райхон Беруний. Памятники минувших поколений (перевод и примечания М.А.Салье)//Избранные произведения, Том I. – Ташкент: Фан, 1957.
5. Атамуратова Ф.С. (2016). Духовного наследия великих мыслителей востока и их вклад в медицину. Вестник Ташкентской медицинской академии, (3), 171-172.



CONTENTS MUNDARIJA

- 23.** Xoldorova, G. M. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING TABIIY FANLAR RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 83-87.
- 24.** Mirazimova, M. N., & Xolmurzayeva, M. O. (2022). BERUNIYNING BOLA TARBIYASIDAGI DIDAKTIK G'OYALARI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 88-90.
- 25.** Yunusova, S. S., & Yunusova, F. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING ILMIY MEROSI YOSH AVLODGA BUYUK MEROSDIR. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 91-94.
- 26.** Yunusova, S. S. (2022). ABU RAYXON BERUNIYNING ILM - FAN UMUMINSONIY TARAQQIYOTGA QUSHGAN HISSASI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 95-97.
- 27.** Abdalov, U. M. (2022). ABU RAYXON BERUNIYNING AVESTO VA ZARDUSHTIYLIK DINI HAQIDAGI QARASHLARI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 98-100.
- 28.** Abduraxmanov, S. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING ILMIY MEROSI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 101-103.
- 29.** Yo`ldashev, A. (2022). AL BERUNIYNING ILMIY MADANIY MEROSNING AHAMIYATI VA UNI FAN TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 104-106.
- 30.** Nurbaeva, H. B., & Mirzaev, B. O. (2022). ABU RAYHON MUHAMMAD IBN AHMAD AL-BYERUNIY YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 107-113.
- 31.** Xolbekov, A. (2022). ABU RAYHON BERUNIY - ILM-FAN XOMIYSI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 114-116.
- 32.** Karimov, B. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING MASHHUR "HINDISTON" ASARI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 117-120.
- 33.** Atamuratova, F. S. (2022). BERUNING AXLOQIY QARASHLARI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 121-124.
- 34.** Борецкая, А. С. (2022). СОСТОЯНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В ЭПОХУ БЕРУНИ. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 125-127.

